

MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH, MONITORING VA XALQARO
HAMKORLIK

Abrorova Dildora Anvar qizi.
Qarshi xalqaro universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim sifatini baholashning asoslari, monitoring tizimining ahamiyati hamda ta'lim sifatini oshirishda xalqaro hamkorlikning roli tahlil qilinadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari va zamonaviy monitoring metodlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar hamda ularning maktabgacha ta'lim rivojiga ta'siri har tomonlama ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'lim sifati, monitoring, pedagogik diagnostika, xalqaro hamkorlik, ta'lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются теоретические основы оценки качества дошкольного образования, значение системы мониторинга и роль международного сотрудничества в повышении качества образования. Проанализированы реформы системы дошкольного образования Узбекистана, механизмы контроля качества образования и современные методы мониторинга.

Ключевые слова: дошкольное образование, качество образования, мониторинг, педагогическая диагностика, международное сотрудничество.

Abstract

This scientific article analyzes the theoretical foundations of assessing the quality of preschool education, the importance of monitoring systems, and the role of international cooperation in improving education quality. The reforms implemented in the preschool education system of Uzbekistan, modern monitoring methods, and mechanisms for quality control are examined.

Keywords: preschool education, education quality, monitoring, pedagogical diagnostics, international cooperation.

Kirish

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limni bir so'z bilan aytganda bola rivojlanishining fundamental bosqichi desak ham hech mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shu davrda bolaning intellektual, ijtimoiy, psixologik va jismoniy rivojlanishining asosi rivojlanadi. Ayni shu jihatlar esa bola hayotida muhim qadam hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash va uni rivojlantirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirib borilmoqda. Ta‘lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar malakasini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni joriy etish hamda monitoring tizimini rivojlantirish ushbu islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish jarayonida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning o‘rni muhim hisoblanadi. Jumladan, UNICEF, UNESCO hamda World Bank bilan amalga oshirilayotgan loyihalar ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta‘lim sifatining nazariy asoslari.

Ta‘lim sifati pedagogika fanining muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ta‘lim sifati — bu ta‘lim jarayonining maqsadga muvofiqligi, samaradorligi hamda ta‘lim natijalarining belgilangan standartlarga mos kelish darajasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim sifatini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- pedagog kadrlarning malakasi;
- ta‘lim dasturlari va metodikalar;
- rivojlantiruvchi ta‘lim muhiti;
- moddiy-texnik ta‘minot;
- bolalarning individual rivojlanish ko‘rsatkichlari.

Bolalar rivojlanishini baholash va uni rivojlantirish masalasi bilan ko‘plab pedagog olimlar shug‘ullangan. Jumladan, Lev Vygotskiy bolaning rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ta‘kidlagan. Shuningdek, Jean Piaget bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan.

Ushbu nazariyalar zamonaviy maktabgacha ta‘lim tizimida sifatni baholash metodologiyasining ilmiy asoslarini tashkil etadi.

Maktabgacha ta‘lim monitoring tizimi.

Monitoring — bu ta‘lim jarayonini muntazam kuzatish, tahlil qilish va baholash tizimidir. Monitoring orqali ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik jarayonlarning samaradorligi, bolalarning rivojlanish darajalari hamda ta‘lim muhitining sifati doimiy ravishda tahlil qilinadi va mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi. Monitoring natijalari ta‘lim jarayonini takomillashtirish, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Maktabgacha ta‘lim monitoringi bir necha darajada amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, ichki monitoring maktabgacha ta‘lim tashkilotining o‘zida tashkil etiladi. Bunda tarbiyachilar, metodistlar va muassasa rahbariyati tomonidan ta‘lim jarayoni muntazam kuzatib boriladi. Ichki monitoring pedagog faoliyati sifatini oshirish, tarbiyachilarning ish uslublarini takomillashtirish va bolalarning rivojlanish sohalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi daraja tashqi monitoring hisoblanadi. Bu monitoring turini hududiy ta‘lim boshqarmalari va tegishli davlat tashkilotlari amalga oshiradi. Tashqi monitoring maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining faoliyatini davlat talablari va standartlariga muvofiqligini baholash imkonini beradi.

Monitoringning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta‘lim sifatini nazorat qilish;

- ta'lim jarayonidagi muammolarni aniqlash;
- pedagogik faoliyat samaradorligini baholash;
- ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Monitoring jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maqsad va vazifalarni aniqlash;
- indikatorlarni belgilash;
- ma'lumotlarni yig'ish;
- tahlil qilish;
- xulosalar chiqarish.

Maktabgacha ta'lim monitoringida bolalarning rivojlanish darajasi quyidagi 5 ta rivojlanish sohalari bo'yicha baholanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi ;
- ijtimoiy –hissiy rivojlanish ;
- nutq, muloqot o'qish va yozish malakalari ;
- bilish jarayonining rivojlanishi ;
- ijodiy rivojlanish .

Zamonaviy maktabgacha ta'lim monitoring tizimida pedagogik diagnostika ham muhim o'rin tutadi. Pedagogik diagnostika orqali bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon individual yondashuvni ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, monitoring tizimi ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar fikri va takliflarini o'rganish orqali ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkin. Shu sababli zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida so'rovnomalar, suhbatlar va ota-onalar yig'ilishlari orqali monitoring ishlari olib boriladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sifatini baholash tizimi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda ta'lim ta'lim sifatini nazorat qilish maqsadida kompleks baholash tizimi joriy etilgan. Ushbu islohotlar doirasida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar malakasini oshirish va monitoring tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sifatini nazorat qilish tizimi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlari asosida baholash;
- ichki nazorat;
- tashqi monitoring;
- pedagogik diagnostika.

Maktabgacha ta'lim sifatini baholash jarayonida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining quyidagi jihatlari alohida e'tiborga olinmoqda.

- ta'lim dasturlarining davlat talablariga mosligi;
- pedagog kadrlarning kasbiy malakasi;
- moddiy-texnik baza va jihozlar holati;
- bolalarning rivojlanish natijalari

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi sifatini baholash jarayonida raqamli texnologiyalar ham keng qo'llanilmoqda. Elektron monitoring tizimlari, ma'lumotlar bazasi va statistik tahlil vositalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini samarali nazorat qilish imkonini bermoqda. Raqamli tizimlar yordamida ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlarni tezkor yig'ish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish osonlashmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sifatini baholash tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Ushbu tizimni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda maktabgacha ta'limning sifat darajasini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyati kengaymoqda.

Xalqaro hamkorlikning ahamiyati.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribani o'rganish va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Chunki rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik samarali natijalar beradi. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Masalan:

UNICEF bilan hamkorlikda ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish dasturlari ishlab chiqilgan. Hamkorlik doirasida erta bolalik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hamkorlik orqali pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda, ota-onalar uchun maslahat va tavsiyalar berilmoqda hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim dasturlari joriy etilmoqda. UNICEF tomonidan tashkil etilgan treninglar orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Barcha bolalar uchun maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun UNICEF O'zbekiston respublikasi hukumatining maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur sohadagi muvaffaqiyatli islohotlar tufayli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2017-yildagi 30 foizdan kam bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 70 foizdan ortdi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlatni qo'llab-quvvatlash uchun 2018-yildan hozirgi kunga qadar UNICEF deyarli 2 million Aqsh dollari miqdorida sarmoya kiritdi. Ushbu investitsiyalar yangi qonunlar, milliy siyosat va rejalar qabul qilinishiga, ma'lumotlarni yig'ish va sifatini ta'minlash mexanizmlarini tadbiq etishga hissa qo'shdi.

UNICEF Microsoft bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun o'quv materiallaridan uzluksiz foydalanish imkonini beruvchi Learning Passport/Bolalik Akademiyasi onlayn platformasini taqdim etdi.

Bola parvarishi bilan shug'ullanadiganlar, xususan ota-onalar uchun raqamli yordamchi vazifasini bajaradigan Bebo mobil ilovasini ishlab chiqishni UNICEF qo'llab-quvvatladi.

Erta yoshdagi bolalar parvarishi va tarbiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun 520,000 dan ortiq kishi ushbu ilovadan foydalanmoqda.

UNICEF maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda Hukumatni quyidagi yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda;

-Erta ta'lim va rivojlanish standartlari va „Ilk qadam“ maktabgacha ta'lim dasturini qayta ko'rib chiqish, jumladan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish;

-3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yangi dasturni ishlab chiqish;

-Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalash va modellashtirish, jumladan ijtimoiy munosabat va xulq-atvor o'zgarishiga qaratilgan muloqot;

-Maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun murabbiylik modelini ishlab chiqish va viloyatlardagi pedagoglar malakasini oshirish markazlarining salohiyatini yanada oshirish;

UNESCO bilan ta'lim sifatini baholash tizimlarini takomillashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan global ta'lim monitoring hisobotlari orqali turli davlatlarning ta'lim tizimi tahlil qilinadi va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar beriladi. Bu tavsiyalar milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Toshkent- 2025-yil, 9-iyul. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va UNESCO o'rtasida mamlakatda pedagog kadrlar tayyorlash va kasbiy rivojlantirish tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan yirik tashabbusni boshlash bo'yicha yangi bitim imzolandi. To'rt yillik loyiha butun mamlakat bo'ylab ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish tizimini yaratishga qaratilgan.

UNESCO tomonidan tayyorlanadigan **Global Education Monitoring Report** orqali O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro miqyosda tahlil qilinadi. Ushbu hisobotlar asosida ta'lim sifatini baholash indikatorlari takomillashtiriladi va ta'lim siyosatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, UNESCO bilan hamkorlikda ;

-ta'lim sifatini monitoring qilish tizimini rivojlantirish;

-pedagogik tadqiqotlarni qo'llab –quvvatlash ;

-barqaror rivojlanish uchun ta'lim Education for Sustainable Development tamoyillarini joriy etish kabi yo'nalishlarda ham ishlar amalga oshirilmoqda.

World Bank tomonidan maktabgacha ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish hamda mavjud muassasalarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar orqali ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda va ta'lim sifati yanada oshirilmoqda.

Jahon banki ko'magida amalga oshirilayotgan loyihalarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat;

-yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish;

-mavjud muassasalarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash ;

-pedagog kadrlarning malakasini oshirish;

-ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish;

„O'zbekistonda bolalarni erta rivojlanishini takomillashtirish ” xalqaro loyihasi bo'yicha olib borilayotgan va erishilgan natijalar Jahon bankining „Yevropa va Markaziy Osiyoda maktabgacha ta'lim va inklyuziv ta'lim orqali asosiy ko'nikmalarni shakllantirish” tashabbusi doirasida alohida e'tirof etildi.

Jahon banki O'zbekistonning maktabgacha ta'lim sohasida, xususan, bog'cha yoshidagi bolalarning inklyuziv maktabgacha ta'limga qamrab olish sa'y harakatlarini yuqori baholadi.

Xalqaro hamkorlik orqali:

-pedagoglar malakasi oshiriladi;

-zamonaviy ta'lim metodlari joriy etiladi;

-ta'lim sifati xalqaro standartlarga moslashtiriladi.

Turli xalqaro seminarlar, konferensiyalar va tajriba almashish dasturlari orqali pedagoglar xorijiy tajribani o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi. Xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali maktabgacha ta'limning samaradorligini yanada oshirish mumkin bo'ladi.

Muammolar va istiqbolli vazifalar

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsada, ta'lim sifatini yanada oshirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Albatta bu muammolarni bartaraf etish chora tadbirlari olib borilmoqda.

Avvalo, ayrim hududlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi yetarli darajada rivojlanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy muammolar:

-ayrim hududlarda moddiy-texnik baza yetishmasligi;

-malakali pedagog kadrlar yetishmovchiligi;

-monitoring tizimining barcha hududlarda bir xil darajada ishlamasligi.

Kelgusida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda quyidagi istiqbolli vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash;

-pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish;

-ta'lim sifatini baholash va monitoring tizimini takomillashtirish;

-raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish;

-bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

-ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

-inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda O'zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu islohotlar maktabgacha ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga va ta'lim sifatining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biridir. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida bolaning shaxsiyati, tafakkuri, nutqi va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish ta'lim tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki monitoring va tahlil jarayonida yutuq, kamchiliklar tahlil qilinadi yuzaga kelayotgan muammolar o'rganiladi va shunga ko'ra yechimlar beriladi. Biz muammolarni tahlil qilmas ekanmiz, kamchiliklarimizni va kelajak rejalarimizni maqsadli va aniq tashkil qila olmaymiz. Zamonaviy monitoring tizimi orqali ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish va ta'lim sifatini oshirish mumkin. Kelajak istiqbolli rejalarimizni tuzishda va strategiyamizning namunali va yutuqli amalga oshirishimizda ham baholash va monitoringning o'rni beqiyosdir.

O'zbekistonda so'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, maktabgacha

ta'lim tashkilotlari sonining oshirilishi, yangi ta'lim dasturlarining joriy etilishi, pedagog kadrlarning malakasini oshirish hamda raqamli monitoring tizimining yo'lga qo'yilishi ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, UNICEF, UNESCO hamda World Bank kabi xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan loyihalar maktabgacha ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishiga, pedagog kadrlarning malakasini oshirishga va ta'lim sifati monitoring tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlik asosida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish orqali kelajak avlodning har tomonlama voyaga yetishiga mustahkam zamin yaratiladi. Zero bolajonlarimiz bizning kelajagimiz, jamiyatimizning mustahkam ildizlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'limni rivojlantirishga oid qarorlari (2017–2025).
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026).
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent, 2023.
4. Lev Vygotskiy. Myshleniye i rech. Moskva, 1934.
5. Jean Piaget. The Psychology of the Child. New York, 1969.
6. UNICEF. Early Childhood Development Report, 2023.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2024.
8. World Bank. Uzbekistan Education Sector Report, 2024.
9. OECD. Starting Strong: Early Childhood Education and Care Report, 2023.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Ta'lim statistik to'plami, 2025.